

**“CHOLIQUUSHI” ROMANI TARJIMASI HAQIDA MULOHAZALAR****Xasanboyev Nodirbek Xasanboy o‘g‘li***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitet  
2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada turk xalqining sevimli adibi bo‘lish Rashod Nuri Guntekinning “Choliquushi” romanining turkcha matni va Mirzakalon Ismoilij tomonidan tarjima qilingan o‘zbekcha matnlari solishtirilgan. Tarjimonning yutuqlari, badiiy tasvir vositalari qahramonlarning ruhiy holatlarini ochib berishdagi qo‘llagan jumalari va so‘zlarining asarni o‘qish, tushunishda qanchalik muhim ahamiyat kasb etgani ochib berilgan.*

**Annotation:** *This article compares the Turkish text of the novel "Choliquushi" by Rashad Nuri Guntekin, the favorite writer of the Turkish people, and the Uzbek text translated by Mirzakalon Ismaili. It is revealed how important the translator's achievements are, the sentences and words used by the visual aids to reveal the mental states of the characters in reading and understanding the work.*

**Kalit so‘zlar:** *Tarjima, badiiy tasvir, qahramonlar, ruhiyat, tabiat tasviri, o‘xshatishlar,*

**Key words:** *Translation, artistic image, characters, spirituality, nature image, similes.*

R.N. Guntekinning yillar davomida qayta-qayta tarjima va nashr qilingan asari “Choliquushi” romani xalqimiz tomonidan har doim sevib o‘qilgan asardir. Ushbu asarda oddiy muallima qiz, Faridaning sof va samimiy muhabbati bilan uning esdalik daftari orqali tanishamiz. Asar “O‘zbek tarjimonlarining otasi” bo‘lmish, Mirzakalon ismoilij tomonidan mohirona tarzda ona tilimizga tarjima qilingan. Farida yoshlikdan quvnoq, har narsaga qiziquvchan, shaddod qiz edi. U oilasi bag‘rida juda kam hayot kechirgan bo‘lsada otasini yorqin xotiralar bilan eslaydi. Asarda Faridaning Komronga bo‘lgan muhabbati tasvirlangan. Mirzakalon Ismoilij asarni tarjima qilishda odiiy so‘zlarni ham murakkab o‘xshatish va badiiy tasvir vositalarini ham o‘z maromiga yetkazib tarjima qila olgan.

Asarning turkcha matnida o‘qituvchi ayolga nisbatan “hoca hanım” jumlası qo‘llanilgan, o‘zbekcha matnida ham aynan shu jumla “Xo‘ja xonim” tarzida aslidagidek olingan. Turk tilidan umuman habarsiz o‘quvchi uchun bu jumla tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Asarda kelga “Hoca hanım” jumlası tarjimada “muallima” tarzida yoki, “muallima xonim” tarzida überilsa barcha o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lar edi.

Asarda kelgan turkcha iborlar ham mazmuniga zarar yetkazilmasdan, o‘zbek o‘quvchisiga tushunarli tarzda tarjima qilingan.

Masalan: “Duvardaki boyalı Meryem tablosunun altına asılmış guguklu saat durmadan yürüdüğü halde ben, hala yerimde sayıyorum”. [2.5]

Tarjimasi: Devordagi bo‘yoqli Maryam suratining tagiga osilgan ukkili soat to‘xtamasdan yurayotgan paytda men anqayib o‘tirardim.[1.6]

“hala yerimde sayıyorum” iborasi to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zbek tilida “men hali ham joyimda hisoblab o‘tirardim” tarzida tarjima qilinadi. Vaqt o‘tayotganini, ammo Feridening hali ham yozish uchun aqliga hech narsa kelmaganini tasvirlash uchun tilimizdagi “anqaymoq” so‘zidan mohirona foydalanib asarning tushunilishini osonlashtirish, ortiqcha hajmdan qutulish bilan bir qatorda asarning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shgan.

“Sırf bitip tükenmeyecek gibi görünen, bir gecenin yalnızlığına karşı koymak için hatıralarımı yazmaya başladım.”[2.8]

Tarjimasi: “Sıra tonggi yorishmaydigandek tuyilgan tun azobidan qutulish uchun yozishni boshladim.”[1.8]

Ushbu parchadagi “yalnızlığına” ya’ni, “yolg‘izligiga” deb tarjima qilinishi kerak bo‘lgan so‘zning o‘rniga “azobiga” so‘zi ishlatilgan. Aslida esa Feride poyonsizdek tuyulgan tunning yolg‘izligidan zerikkan edi. Asardagi yolg‘izlik so‘zini o‘z o‘rnida azob so‘zi bilan almashtirmasdan, o‘z o‘rnida qo‘llanilishi Feridening o‘sha paytdagi ruhiy holatini, yolg‘izlikni ochib berishda ko‘proq samara bergan bo‘lar edi.

Çocukluğumda bana hoyrat derlerdi. Galiba haklarıda var dı. Kiminle oynarsam canını yakar, bağırtırırdım.[2.8]

Tarjimasi: Kichikligimda meni qilig‘i sovuq deyishardi. Balki bu to‘g‘ridir ham. Nimagaki, kim bilan o‘ynasam jonini og‘ritar, dodlatar edim.[1.9]

Ushbu gapda hoyrat so‘zi qo‘llangan. Bu so‘zning tarjimasi qo‘pol degan ma’noni anglatadi. Tarjimasi qo‘pol so‘zining o‘rniga qilig‘i sovuq degan ifodani qo‘llagan. Oddiygina qilib qo‘pol degan so‘zni ishlatganda ham asarning mazmuniga putur yetmas edi. Qilig‘i sovuq ifodasini qo‘llanishi asarni tarjima qilishda o‘zbek xalqona tiliga yaqinlashtirilishi asarning badiiyatini yuksak darajaga olib chiqqan omillardan biridir.

Dişimle kırarak havuza attığım simit kırıntılarına üşüşen kırmızı balıkları izliyor, büyükannemle Hüseyin’in suyun dibine vurmuş akislerine bakıyordum.[2.16]

Tarjimasi: Men chaynab hovuzga tashlayotgan teshikkulchalarga to‘planayotgan baliqlar go‘yib bo‘lib, buvim va bilan Husaynning suvdagi akslari ko‘rina boshladi.[1.17]

Yuqorida keltirgan gapimizning tarjimasida biroz xatolik bor. Aslida esa gap bunday tarjima qilinishi kerak edi: Men chaynab hovuzga tashlayotgan teshikkulchalarga to‘planayotgan baliqlarni tomosha qilish bilan birga buvim va Husaynning suvdagi aksini ham kuzatayotgan edim. O‘zbekchaga bunday tarjima qilishimizning sababi, turkcha matnda Feridening ham baliqlarni tomosha qilayotgani va shu bilan birga ayni damda buvisi va Husaynni suvdagi aksini kuzatayotgani berilgan. Ya’ni baliqlarni tomosha qilayotgani inkor etilib o‘rniga buvisi va Husaynni kuzatishni boshlagani tushunilmaydi.

Niçin? Bu incelikleri akıl edecek yaşta deǵildim. Yalnız, bu ayrılıǵın vakti gelince güneşin batması, yağmurun yağması gibi hiçbir tedbirle önüne geçilemeyecek bir felaket olduğunu gayet iyi anlıyordum.[2.18]

Tarjiması: Nega endi? Lekin mayda sabablarga aqlim yetadigan yoshda emas edim... Faqat bu ayriliq vaqti-soati kelganda, kunning botishi... yomg'irning yog'ishini to'sib bo'lmagani kabi, bu ham hech bir yo'sin bilan oldini olib bo'lmaydigan bir falokat ekanligini sezib turardim.[1.20]

Ushbu gapning turkcha matnida qo'llangan "Bu incelikleri akıl edecek yaşta deǵildim" jumlasini "? Lekin mayda sabablarga aqlim yetadigan yoshda emas edim..." tarzida tarjima qilish gapni matnning mazmunidan uzulib qolishiga sabab bo'lgan. Aslida esa "Lekin bunday nozik masalalarga aqlim yetadigan yoshda emasdim..." deya tarjima qilinsa to'g'ri bo'lar edi. Chunki bu yerdagi masala Husayn va Ferideni bir-biridan ayirishayotganida edi.

Xulosa: O'zbekzabon tarjimonlar orasida o'zining beqiyos o'rniga ega bo'lgan, adabiyotshunoslar va tarjimonlar tomonidan "tarjimonlar otasi" nomi berilgan Mirzakalon Ismoiliy Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" romanini o'zbek xalqining yuragiga yetib boradigan, qahramonlarning har bir ichki kechinmalarini o'quvchi tomonidan his qilinmay qolmaydigan tarzda tarjima qila olgan. Asarning xalqimiz qalbiga kirib bora olishining asosiy sababi asar tarjima qilinish jarayonida mutlaqo o'zbekchalashgan, asar ichidagi o'xshatishlarni tasvirlarni tarjima qilishda g'alizlik va tushunarsizliklar yo'q.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Choliqushi" Rashod Nuri Guntekin //roman// "O'qituvchi", T-:2018-y 456 bet
2. "Çalıkuşu" Reşat Nuri Güntekin// roman// Nurgök matbaası, Istanbul – 1963.